XALİQ DEPUTATLARİ XOJELI RAYONLİQ KEŃESINIŃ SH E SH I M I

XALQ DEPUTATLARI XO‘JAYLI TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

2022 - yil 22 - iyun VI-50-125-13-191-K/22 Xo‘jayli tuman hokimligi

Tuman hududida qabristonlarning nomlarini va madaniy dam olish bog‘i nomini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasi talablariga muvofiq, geografik obyektlar (qabriston va madaniy dam olish bog‘i)ning nomlarini qayta ko‘rib chiqish maqsadida

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-mart kungi 01-30/1-3425-sonli bayoni, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi komissiyasining 2021-yil 7-may kungi 01-08/05-05/224-sonli bayoni inobatga olinsin.

2. Xo‘jayli tumani hududida mavjud bo‘lgan qabristonlarning va madaniy dam olish bog‘i nomlari qo‘shimchaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statisika bo‘limi (A.Tajibaev)ga va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Xo‘jayli tumani filiali (Q.Bayniyazov)ga ushbu qarorning ilovasiga muvofiq atamalari o‘zgaradigan geografik obyektlarni qayta ro‘yxatdan o‘tkazish vazifasi topshirilsin.

4. Xo‘jayli tumani hokimligi matbuot bo‘limi (S.Xurmetullaeva)ga ushbu qarorni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish va «Xojeli haqiyqati» gazetasida yoritish topshirilsin.

5. Qaror rasmiy tarzda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Xo‘jayli tumani Kengashining ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirish, oila, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga yuklansin.

Xalq deputatlari Xo‘jayli tumani Kengashi raisi **J.Ermashev**

Xalq deputatlari Xo‘jayli tuman
Kengashining
2022 yil 22 iyundagi
VI-50-125-13-191-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xo‘jayli tumani hududidagi nom beriladigan va qayta nomlanadigan geografik obyektlar ro‘yxati

№	Geografik obyektning nomi	Obyekt turi	Joylashgan o‘rni
“Sarishungul” OFY			
1.	“Mazlimxan suliu‘”	Qabriston	“Sarishungul” OFY
“Bunyodkor” MFY			
2.	“Yusup iyshan”	Qabriston	“Bunyodkor” MFY
“Samanko‘l” OFY			
3.	“Sultan-axun”	Qabriston	“Samanko‘l” OFY
“Jana-jap” OFY			
4.	“Xudaybergen-axun”	Qabriston	“Jana-jap” OFY
“Navro‘z” MFY			
5.	“Qabiljan-baba”	Qabriston	“Navro‘z” MFY
“Amudaryo” OFY			
6.	“Seksen-xoja”	Qabriston	“Amudaryo” OFY
“Shag‘alako‘l” MFY			
7.	“Turan”	Madaniy dam olish bog‘i	“Shag‘alako‘l” MFY